

BUXORODA TURIZM SALOHİYATI VA IMKONIYATLARI

Norboyeva Umida Toshtemirovna

*Buxoro Davlat Universiteti biologiya fanlari doktori, nrof.
umidanorboyeva1973@gmail.com*

Sayfiddinova Mohinur Sadridin qizi

Buxoro Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati Shofirkon tumani landshafti, turli noyob va jozibali tabiat manzaralari, agrolandshaftlari, diqqatga sazovor bo'lgan madaniy va tarixiy obidalari, shuningdek ziyorat, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishdagi muhim o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zla: Turizm, iqlim, rekreatsiya, rekonstruksiya, restavratsiya, landshaft, ekspeditsiya, Vardanze, "Xo'ja Orif Revgariy", "Hazor nur", ziyorat turizmi.

Аннотация. В статье обосновывается ландшафт Шафирконского района Бухарской области, различные уникальные и привлекательные природные ландшафты, агроландшафты, заслуживающие внимания культурно-исторические памятники, а также их важная роль в развитии паломнического, рекреационного и экотуризма.

Ключевые слова: Туризм, климат, рекреация, реконструкция, реставрация, ландшафт, экспедиция, Варданзе, «Ходжа Ариф Ревгари», «Хазар Нур», паломнический туризм.

Abstract. In the article, the landscape of Shafirkon district of Bukhara region, various unique and attractive natural landscapes, agro-landscapes, noteworthy cultural and historical monuments, as well as their important role in the development of pilgrimage, recreation and ecotourism are justified.

Keywords: Tourism, climate, recreation, reconstruction, restoration, landscape, expedition, Vardanze, "Khoja Arif Revgari", "Hazar Nur", pilgrimage tourism.

Kirish. Aholining o'zi yashab turgan mintaqa hudud, o'lka yoki biror mamalakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsiya faoliyat turiga sayohat, yani turizm deyiladi. "Turizm termini fransuzchadan olingan bo'lib, "tour"- aylana, aylanma harakat va sayr-sayohat degan ma'noni anglatadi. Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyat ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi[2].

Bu qarorga asosan O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar uchun shart-sharoitlar yaratilishi, rejalashtirilgan turizm salohiyati yuqori bo'lgan madaniy meros obyektlari ro'yxatini tuzish, ziyorat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarining 2021 – 2025 yillarda ustuvor ravishda restavratsiya qilish dasturi, _uzoq xorij va qo'shni respublikalardan xorijiy turistlarni qabul qilish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ni tuzish, _xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va targ'iboti keng amalga oshiriladigan, allomalar va ziyoratgohlar to'g'risidagi filmlar ro'yxati, O'zbekiston bo'yab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan qaytarish tartibi, subsidiyalanadigan avia va temir yo'l qatnovi yo'nalishlarini, avia chiptalar va mehmonxona xizmatlarini subsidiyalash miqdorini belgilash bo'yicha maxsus komissiya tarkibi tasdiqlangan. Bunda, maxsus komissiyaga vakolatlar berilgan. Maxsus komissiya tomonidan joriy etilayotgan aviaqatnovlarga chiptalar 40 foizgacha, turoperatorlar orqali xarid qilingan temiryo'l chiptalariga 15 foiz, mehmonxona xizmatlariga 10 foiz qo'shimcha chegirmalar taqdim etiladi, mahalliy yashovchining har bir yashagan kuni uchun joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'imning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 0,4 foizini tashkil etadi, turistik tashkilotlarning ishchilari, gidlar (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakaviy imtihonlarini o'tkazish 2022-yil 1-martdan boshlab amalga oshiriladi, davlat organlarining ijtimoiy reklama mahsulotlari Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan ichki va ziyorat turizmi obyektlari aks ettirilgan dizayn tasviri asosida tayyorlanadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda turizmning, nafaqat, tarixiy yoki an'anaviy, balki, yangidan-yangi turlari, shakl hamda ko'rinishlari vujudga kelmoqdaki, bu yangi tendensiyalar mazkur sohani valyuta kirib keluvchi manba sifatidagina emas, mintaqaviy rivojlanishning asosiy faktorlaridan biri deb qabul qilinishiga olib kelmoqda. Shu sababli, keyingi vaqtda dunyo mamlakatlari qisqa muddatlarda katta daromad keltiruvchi moliyaviy sohalar bilan bir qatorda turizmga ham davlat darajasida katta e'tibor qaratmoqda[3].

Turizm bugungi kunda dunyo mamlakatlari xizmat ko'rsatish sohasining eng yirik yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Uning iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ustun jihatlari shu bilan ifodalanadiki, turli taraqqiyot bosqichida bo'lgan barcha mamlakatlarda ham rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligidir. Buni nafaqat, tarixiy joylar, balki, geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, ba'zi hollarda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy yoki ekologik muammoli, hatto, ekstremal sharoitdagi hudud hamda xilma-xil uslublarda qurilgan inshootlar ham sayohat ob'yektiga aylangan holda byudjetga daromad keltirishida ko'rishimiz mumkin[4].

Turizm va rekreatsiya respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega. O'zbekistonning geografik o'zni turizmni rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng qulay imkoniyatlarga egadir.

O'zbekiston xalqaro aloqalarini yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qisman qulay jo'g'rofiy-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq va G'arbni bog'lab turgan "Buyuk Ipak yo'li" O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Evropa va Yaqin Sharqdan Osiyo Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishgan edi [5].

Geoturizm turistik faoliyatning bir qismi, unda ular asosiy diqqatga sazovor joy sifatida geologik homiylikka ega bo'lishadi. Ularning maqsadi - o'zlarining resurslarini va turistlarning atrof-muhit to'g'risida xabardorligini saqlash orqali himoyalangan patronlikni izlash. Buning uchun homiylik talqinidan foydalanish, uni ommalashtirishga va Yer haqidagi fanlarning rivojlanishiga ko'maklashib, uni oddiy aholi uchun ochiq qiladi[6]

"Geoturizm - bu bilimga asoslangan turizm, turistik sohani abiotik tabiat atributlarini saqlash va talqin qilish bilan fanlararo integratsiyasi, shuningdek, madaniy masalalarni ko'rib chiqishdan tashqari, keng omma uchun geosites". "Landshaft va geologiyaga alohida e'tibor beradigan tabiiy sayyohlik shakli. Bu turizmni geozitlarga va geologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi va qadrlash va o'rganish orqali Yer haqidagi bilimlarni tushunishga yordam beradi. Bunga geologik xususiyatlarga mustaqil tashriflar, geo-marshrutlar va tomosha qilish punktlari, ekskursiyalar, geotexnika va geolit tashrif buyuruvchilar markazlarining homiyligi"[3].

Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o'zgarishlar jarayonida mamlakatda ziyorat turizmning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Mintaqaning ziyorat turistik imkoniyatlari to'g'risida xorijiy jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida chet ellik turistik markazlar, turfirmalar bilan maslahat uchrashuvlari olib borish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarimizda ekstrapolyatsiya, ekspeditsiya, kuzatish, qiyoslash, og'zaki so'rov, statistik, tarixiy kadi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida asosan geografik majmua va komponentlar hamda geografik muhit tadqiq etildi. Tadqiqot davomida Shofirkon tumani uchun xos bo'lgan va cho'l-adir-tekislik landshaftlarida turistik hududlarni o'rganish orqali dam olish va madaniy rekreasiya landshaftlarni ajratish va o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari dam olish va madaniy rekreasiya kompleks birliklarni va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'rganishda Tadqiqotlar davomida ekspeditsiya uyushtirildi. Tadqiqotimizning ob'ekti Shofirkon tumani muqaddas qadamjolari va tarixiy obidalari hamda tabiiy landshaftlaridir. Shofirkon tumani viloyatning shimolida joylashgan bo'lib tumanda juda ko'p sayohat qiladigan ziyoratgohlar qad ko'targan. Shofirkon tumani turizm rivojlangan tumanlardan biri hisoblanadi. Shofirkon tumanida yitti pirlardan biri bo'lgan "Xo'ja Orif Revgariy" va "Hazor nur" ziyoratgohi ham mavjud. Bundan tashqari Shofirkon tumanida Vardanze deb nomlangan mashhur tabiat yodgorligi

ham mavjud. Mahalliy xalqdan og'zaki so'rov va tarixiy metodlar yordamida tarixiy, geografik majmua va komponentlar hamda geografik muhit tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda ham o'z geografik joylashishi va iqlimi bilan farq qiladigan viloyatlar juda ko'p. Ana shunday viloyatlardan biri qadim va navqiron Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidir. Buxoro viloyatida 11 ta tuman bo'lib, ulardan biri Shofirkon tumanidir. Shofirkon tumani 1926-yilda tashkil topgan. Shofirkon tumani viloyatning shimolida joylashgan. Shofirkon tuman markazida Xo'ja Orif Revgariy ziyoratgohi joylashgan bo'lib u yitti pirlardan ikkinchisi hisoblanadi. Bu ziyoratgoh Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan qayta ta'mirlandi va obodonlashtirish ishlari olib borildi, tom manoda aytganda turizm salohiyati juda rivojlanib ketdi. Chet ellik sayohlar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Sayohlar uchun tuman markazida ziyoratgoh atrofida mehmonxona barpo etilgan. Prezidentimizning tegishli topshiriq va tavsiyalari asosida bu qadamjoda ulkan qurilish va obodonchilik ishlari bajarildi. Ziyoratgohda 500 namozxonga mo'ljallangan masjid, tahoratxona, muzey, minora ayvonlari, darvoza hamda 80 o'rinli "Poykent" mehmonxonasi barpo qilindi.

Shofirkon tumanida yana bir ziyoratgoh bor u "Hazor nur" yani "Ming nur" nomi bilan mashhur Bu ziyoratgoh Buxorodan 45 km uzoqlikda joylashgan. Bu joylarda bir vaqtlar to'qay o'rmonlari, ko'llar mavjud bo'lib, bu ko'llarda ko'p sonli baliqlar topilgan. Bu hududda katta Vardanze tepaligi bo'lib bu yerlar feodal shahar bo'lgan. Keyinchalik bu yerlarda sug'orish tizimi buzilgan, natijada tuproq sho'rlanishi kuchayib, hosildorlik keskin pasaygan va aholi bu yerni tark etgan. Hozirda faqat bu yerlarda Vardanze tepaligi saqlanib qolgan. Vardanzega cho'l bo'ylab boriladi, yo'l bo'ylab atrofda juda ko'p saksovul daraxtlari bor. Cho'l hududida juda ko'p otlar ham bor bu yer o'z otlari bilan ham juda mashhurdir. Vardanze tepaligida qabriston joylashgan bo'lib, qabrlar marmar va granitlar bilan qoplangan. Ulkan dala bo'ylab qabrlar oralab borilganda, qabriston o'rtasida bir qasr ham bor, qasrning eshiklari qoraygan, qasr ichida qabrda "Hazor Nur" ning qabri bor. Bu qabrdan nur chiqib turadi deyishadi mahalliy xalq.

Vardanze tabiat yodgorligi 1997 yil tashkil topgan bo'lib u Buxoro viloyati Shofirkon tumanida joylashgan. Maydoni 320 ga yaqin bo'lib asosan qum tepalardan iborat. YUNESKO ning madaniy meros obyeksi sifatida ro'yhatga olingan.

Vardanze - Vardona Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi "Qo'rg'oni Vardanze" nomi bilan mashhur yodgorlik (VI-asr). Qo'rg'onning uzunligi 110 metr, balandligi 45-50 metr. Varzonxudotning maxsus qarorgohi bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda Shopurkon atamasi Sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingan. Shopur Buxoroga kelib buxorxudotlardan yer olib, qasr va qishloq qurdirgan hamda ariq keltirgan. Narshaxiyning yozishicha bu bir katta qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega bo'lgan. U turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bozor bo'lib, savdogarlar ko'p kelar ekan. Arablar hujumi arafasida (VIII-asr boshi) Vardanze Buxorodan alohida mustaqil podsholik poytaxtiga aylangan. Vardanze hukmdori

vardonxudot arablar uchun buxorxudotlardan xavfliroq bo'lgan. X-asrda Vardonze obod shahar edi. Vardonzeda to'qilgan Ka'bapo'sh Makkaga olib borilgan. Bugungi kunda Vardonze o'rnida qo'rg'on tepalik mavjud. Qo'rg'onning ustida marmar tosh saqlanib qolgan. Hozirgi paytda qo'rg'on atrofi nurab, ancha emirilib, ayrim joylari o'pirilib ketgan. Bu hududda Qo'rg'oni Vardonze, ko'hna Vardonze qishloqlari bor. Vardonze davlat tabiat yodgorligi tashkil etilgan.

Vazdanze shahar xarobalar 3 qismdan iborat bo'lib 2 tasi qishloq ichida joylashgan asosiy qum tepasi esa qishloqdan ozgina chetroqda joylashgan. Tepalikka 500 dan oshiq zinapoyalalardan oshib chiqilad. Qum tepalarda qoldiq g'ishtlar uylarning ochilib qolgan joylari mavjud. Ayrim arxeologlar qazishma ishlari ham olib borishgan ammo mahalliy aholining aytishiga qaraganda bu yerda nomalum bo'lgan xazinani ham ko'plab insonlar izlab keladi ammo bu yerga tig' tegirgan inson bir xasta bo'ladi deyishadi usha yerda istiqomat qiladigan mahalliy xalq. Yana ular orasida shunday afsona yurar ekanki bu yerda kattagina ilon bor emish va uning yoshi bir necha o'n yosh va u xazinani himoya qiladi va aslo insonlarga zarar yetkazmaydi, ikki tepa ortasida qatnab yashaydi va qabristondagi kemiruvchilarni istimol qiladi. Uni mahalliy aholi bir necha maratoba ko'rganini aytishadi. Tabiat yodgorligi oldida maqbara ham qad ko'targan bo'lib kelib ketuvchilar uchun mahsus joylar ham tashkil etilgan. Biz tashrif buyurgan kunning o'zidayoq 2 ta avtobus bilan maktab o'quvchilari ekskursiyaga kelishgan ekan.

Dastlab tepalikka zinalar orqali ko'tarilib uni tepadan tomosha qilish mumkin va u yerda oldingi shahar qoldiqlariga guvoh bo'lish mumkin. Tepalikda ramziy qabr ham mavjud, turli chiqib qolgan bino qoldiqlari esa insonni o'ziga darrov jalb etadi. Ayrim ochilib qolgan joylarni qumliklar yana qayta ko'mgan, ammo ularning izlari chiqib qolgan va u yaqin vaqtlardagi qumlar ekanini bilish qiyin emas. Mahalliy aholi tili bilan aytganda tepaning eshigi janubda joylashgan ekan va u yerni ko'rib, uning darvozasi nomini olgan va shimolda joylashgan qismiga bordik. Darvozasi oldida ancha katta go'r bo'lib u yerga kirishga yurak dov bermadi. Ammo go'rning eshik atroflarini ko'zdan kechirdik uning tepa qismlari ham quyosh, shamol va yomg'ir tasirida anchagina o'pirilib tushgan. Tepalik atroflarida asosan yulg'un, saksavul, yantoqlar uchraydi.

Buxoro viloyatining turli noyob va jozibali tabiat manzaralari, agrolandshaftlari, diqqatga sazovor bo'lgan madaniy va tarixiy obidalari rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishga muhim asos bo'ladi. Bunday hududlar o'zlarining davolash va salomatlikni tiklash xususiyatlariga ega bo'lgan manzarali tabiati, qulay iqlim sharoitlari, mineral suvlari, davolovchi balchiq qatlamlari hamda boshqa shart-sharoitlari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda viloyatdagi mavjud imkoniyatlardan turizm va rekreatsiya maqsadlarida foydalanishni yo'lga qo'yish va bunda xorijiy tajribalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda turizm sohasini rivojlantirish orqali viloyat iqtisodiyotini ko'tarish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tarmoqni

rivojlantirishning geografik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Buxoro viloyati hududlarining turistik imkoniyatlarini aniqlash va turizmning o'ziga xos turlarini tashkil etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin Shofirkonda juda ko'p muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar mavjud. Bir so'z bilan aytganda Shofirkon ziyorat turizmi rivojlangan tumanlardan biri hisoblanadi. Nafaqat Shofirkonda balki yurtimizda bunday ziyoratgohlar juda ko'p. Hali biz o'rganmagan, bilmagan ziyoratgohlar juda ham bisyor. O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan sabablardan biri turli mamlakatlardan kelgan ziyoratchilarning O'zbekistonning muqaddas qadamjolari haqida yetarli darajada xabardor emasligidir.

Hozirgi kunda ziyoratgohlar obodonlashtirilib, turizm salohiyati oshirilmoqda, quvonarlisi shundaki tumanimizdagi ziyoratgohlarda nafaqat O'zbekistonlik balki chet ellik turistlarning ham diqqat etiborini tortmoqda. Birgina Xo'ja Orif ar Revgariy ziyoratgohini bir kunda 2000 ming sayyoh ziyorat qilarkan. Ziyorat turizmi aslida xalqlar va shaharlar tarixini modernizatsiya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadry B.N. "Geoturizm asoslari: Uchinchi nashr. Samt tashkiloti noshirlari, Tehron. -2014. 220p.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, Toshkent, 24 fevral, 2021.
3. Hose T. A. "Zamonaviy geoturizm ", Geoheritage Journal, -2012, 4: 7-24
4. Raxmatov Yu.B. Xalqaro turizm: yutuqlar, muammolar, istiqbollor. O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari mazusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari(Chirchiq sh., 2019 yil 11-12oktyabr) 171-174 betlar.
5. Бахрамова С. Ш. Turizm sohasi rivojlanishining ayrim muammolari //Молодой ученый.-2019. -№ 22 (260) -С. 683-685.
6. М. А. Mirzayev M. T. Aliyeva "Turizm asoslari" "O'zbekiston faylasuflar jamiyati" nashriyoti, 2011.